

Biz tadqiqotlarda III va undan yuqoridagi laktasiyalardagi sigirlarning tirik vazniga bog'liqlikda sut mahsuldorligini o'rgandik

Tadqiqotlarda biz turli laktasiyalardagi sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlarini ham o'rgandik.

Xulosalar. 1. Shvis zotli sigirlar sut mahsuldorligi bo'yicha

yuqori irsiy salohiyatga ega va uni respublikamiz sharoitida yaxshi darajada yuzaga chiqardilar.

2. Shvis zotli sigirlarning irsiy salohiyatidan yuqori mahsuldor podalar yaratishda, ulardan olingan naslli buzoqlardan podalarni to'ldirishda keng foydalanish tavsiy etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ashirov M.I., Sodiqov K., Nasriddinov Yo. Shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorligini takomillashtirish. J. "Zooveterinariya". Toshkent, 2014, №9, 32-33 b.

2. Аширов М.И., Соатов У.Р. Продуктивность коров швисской породы в зависимости от типов телосложения. Ж. "Молочное и мясное скотоводство". Москва, 2015, №6, с. 21-23.

3. Аширов М.И., Насриддинов Ё., Аширов Б., Рузибоев Н. Современный швисский скот и его продуктивность. Ж. "Зооветеринария". Тошкент, 2015, №7, с. 26-28.

4. Аширов М.И., Соатов У.Р. Связь селекционных признаков с типами телосложения коров. Ж. "Зооветеринария" Тошкент, 2016, №3, с. 25-27.

5. Ashirov M., Sodiqov K., Nasriddinov Yo., Ashirov B., Ro'ziboyev N. Shvis zotli sigirlarning yangi oilalari. J. "Zooveterinariya", Toshkent, 2016, №2, 29-31 b.

6. Ashirov M.E., Yo'ldiyev D.Sh., Tojiahmedov O.T., G'oziyev A.M., Nasriddinov Yo. Yangi liniyalar-seleksiya yutug'i. J. "Zooveterinariya", Toshkent. 2016, №5, 24-26 b.

UO'T: 636.22./28.082

SHVIS ZOTLI YANGI YARATILGAN LINIYALARGA MANSUB SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARI

Bahriddinov Fayoziddin Bahriddinovich,
Farg'ona davlat universiteti (DSc) doktoranti.

Annotatsiya. Ilmiy tadqiqotlarda tajriba podalarida shvis zotining sermahsul sigirlar seleksiya guruxlariga ajratilgan va yangi liniyalarga, oilalarga xos sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotlarda yangi liniyalardagi sigirlarning sut miqdori shvis zotining andoza talablaridan 6-979,4-1029 kg., seleksiya guruxlarida esa 59,3-99,8% oshganligi aniqlangan. Shuningdek sigirlar ozuqani yaxshi darajada sut bilan qoplash xususiyatlariga ega bo'lgan.

Kalit so'zlar: zot, shvis, liniya, sut, yog', ozuqa.

Аннотация. В научных исследованиях в экспериментальных стадах продуктивные коровы породы швис были отнесены к селекционным группам и изучены молочные продуктивные особенности коров, характерные для новых линий, семейств. В исследованиях удои коров новых линий превышают стандартные требования породы швис на 6-979,4-1029 кг., однако в селекционных группах было обнаружено увеличение на 59,3-99,8%. Также коровы обладали хорошими молочными качествами покрытия корма.

Ключевые слова: порода, швис, линия, молоко, жир, корм.

Abstract. In scientific research in experimental herds, productive Schwyz cows were assigned to breeding groups and the dairy productive characteristics of cows characteristic of new lines and families were studied. In studies, the milk yield of cows of new lines exceeded the standard requirements of the Schvis breed by 6-979.4-1029 kg, however, an increase of 59.3-99.8% was found in the breeding groups. The cows also had good dairy qualities of the feed coating.

Key words: breed, schwyz, line, milk, fat, feed.

Kirish. Respublikamizda shvis zotli qoramollar tog'oldi mintaqalarida urchitishga rejalashtirilgan muhim zot bo'lib hisoblanadi. Bu zot sigirlari turli tuproq-iqlim sharoitlariga yaxshi moslashuvchanligi, yuqori sut mahsuldorligi va sutining sifat ko'rsatkichlari, ozuqani yaxshi darajada mahsulot bilan qoplash va pushtdorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu zotning sigirlari mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlarini to'liq imkoniyatga chiqarish, sermahsul seleksiya podalarini, yangi liniya va oilalarini, tipini yaratish bugungi kunda muhim vazifalardan biri va dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: shvits zotli qoramollarning seleksiya va mahsuldorlik sifatlarini oshirishning ilmiy asoslari hamda amaliy usullaridan foydalangan holda mahalliy va chetdan keltirilgan sigirlarning sut mahsuldorligini takomillashtirish.

Tadqiqot usuli. Ilmiy tadqiqotlarda shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari zootexniyada umumiy qabul qilingan usullarda o'rganildi. Tadqiqotlar Andijon viloyatining shvis zotli qoramollarni urchitadigan yetakchi naslchilik podalarida o'tkazildi. Sigirlarni oziqlantirish va asrash sharoitlari birxil bo'ldi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba podalarida turli liniyalarga xos sigirlar quyidagi sut mahsuldorligi bilan tavsiflandi (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinishicha, o'rganilgan Roksi liniyasidagi sigirlarning sut mahsuldorligi Emil liniyasidagi sigirlarnikidan 510,8 kg (12,2%) sut yog'i chiqimi 30,5 kg (18,5%) yuqori bo'ldi. Sutdorlik ko'effitsienti Emil sigirlarida 14 kg (1,6%) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Sut mahsuldorligi bo'yicha rekordchi sigirlarni yetishtirish nafaqat sut ishlab chiqarish hajmini oshirishda, balki ko'plab

Tajriba podalarida turli liniyalardagi sigirlarning sut mahsuldorligi, kg

Ko'rsatkichlar	Tajriba podasi			
	Emil		Roksi	
	X±Sx	Cv,%	X±Sx	Cv,%
Bosh soni	129		27	
Sut miqdori, kg	4194,5±58,7	14,69	4705,3±109,6	11,3
Sutdagi yog',%	3,93±0,03	1,96	4,15±0,03	2,10
Sut yog'i chiqimi,kg	164,8±9,6	13,9	195,3±9,1	14,0
Sutdorlik koeffitsienti, kg	875,3±36,0	4,0	961,4±32,6	11,5
Tirik vazni, kg	479,2±1,53	3,77	546,2±6,31	6,10

Oilalardagi rekordchi sigirlar sut mahsuldorligi

Oila asoschisi	Oiladagi rekordchi sigirlar laqabi, inv.	Rekordchi sigirlarning sut mahsuldorligi				
		Sut miqdori, kg	Sutdagi yog', %	4%-li sut, kg	Sut yog'i, kg	Sutdorlik koeffitsiyenti
Liliya 0008	Boychechak 0430	6215	4,15	6448	257,9	1062
Liliya 0008	Biyron 9066	6568	4,20	6896	275,8	1132
Liza 0316	Bahor 30622	8520	4,20	8946	357,8	1521
Tuya 0282	Dora 9094	6324	4,20	6640	265,6	1109
Soniya 4612	Yurmala 9062	9664	4,25	9960	398,4	1655
Astra 3566	Xandalak 8960	6411	4,15	6651	266,0	1165
Almazka	Utka 0238	7883	4,10	8080	323,2	1336
Platnya 1814	Katula 9970	6140	4,10	6293,5	251,7	1116
Mariya 0104	Mariya 0104	10462	4,10	10723	428,9	1804
Vetka 1768	Rakel 0708	6341	4,15	6579	263,1	1093
Binafsha 8796	Chaman 0602	6185	4,10	6340	253,6	1085

mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlari yuqori yosh naslli mollar yetishtirishda ham katta amaliy ahamiyatga ega. Biz yangi yaratilgan oilalarda yetishtirilgan rekordchi sigirlarning sut mahsuldorligini o'rgandik, uning natijalari 2 jadvalda keltiriladi.

2-jadval ma'lumotlarining guvohlik berishicha, yaratilgan barcha oilalardan, Qaldirg'och 5242 oilasidan tashqari, rekordchi sigirlar yetishtirildi. Bu yetishtirilgan rekordchi sigirlarning eng yuqori laktasiyadagi sut mahsuldorligi uvis zotining yetuk yoshdagi sigirlarining andoza talablaridan 2940 kg-dan 3,27 barobargacha, sut tarkibidagi yog' 0,40-0,55%, sut yog'i chiqimi 133,3 kg-dan 3,62 barobargacha yuqori bo'ldi. Ayniqsa sigirlar suti tarkibidagi yog'ning yuqori bo'lganligi sutning to'yimlilik qiymatining ham yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Buni ushbu sigirlarning 4%-li sut miqdori ko'rsatkichlari ham tasdiqlaydi. Barcha sigirlar bu ko'rsatkichi bilan yaxshi darajada tavsiflandilar. Ayniqsa, Mariya 0104, Yurmala 9062, Bahor 30622 sigirlarida 4%-li sut miqdori boshqa tengqurlarining ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar ushbu sigirlarning sutining sifat ko'rsatkichlari pishloq tayyorlash sanoati uchun ham ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Sigirlarning mahsuldorligi bo'yicha tana tuzilish va ishlab chiqarish xilini baholashda sutdorlik koeffitsiyenti muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, barcha rekordchi sigirlar har 100 kg tirik vazni hisobiga 1000 kg-dan oshirib sut ishlab chiqardilar, Bahor 30622, Yurmala 9062, Mariya 0104 sigirlarida esa sutdorlik koeffitsiyenti tegishli 1521, 1655, 1804 kg-ni tashkil etdi. Bu ma'lumotlar barcha sigirlar mahsuldorlik yo'nalishi bo'yicha sut tipiga mansub bo'lganligidan dalolat beradi.

Bu esa tajriba podasida uzoq yillar davomida sun'iy qochirishda AQSh, Germaniya, Avstriya, Rossiya seleksiyasiga mansub irsiy salohiyati yuqori shvis zotli nasldor buqalar urug'idan foydalanish samarasidir.

Shuni ham alohida ta'qidlash lozimki, ushbu oilalarga xos sigirlardan ko'p yillar davomida nasli mollar respublikamiz fermer xo'jaliklari uchun tayyorlandi va ulardan foydalanish zotni takomillashtirishda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Shunday qilib, tadqiqotlar yaratilgan yangi oilalar o'ziga xos sut mahsuldorligiga, sutining yaxshi darajadagi sifat ko'rsatkichlariga va sutdorlik koeffitsiyentiga ega bo'lganligini ko'rsatdi. Bunday oilalar bilan seleksiya ishlarini davom ettirish va ularning yangilariga asos solib yaratib borish zotning nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik, texnologik xususiyatlarini takomillashtirib borishda hamda yangi tipini yaratishda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qoramol zotlarini irsiy jihatdan takomillashtirish jarayonida sigirlarning seleksiya podalarini yaratib berish ham alohida amaliy ahamiyatga ega. Biz (T.Shokirov) fermer xo'jaligining naslchilik podasida seleksiya guruhiga ajratilgan sigirlarning sut mahsuldorligini ham o'rgandik (3 jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, seleksiya podasidagi sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlari yuqori. "Buqa yetishtiruvchi guruh" dagi sigirlarning sut miqdori "nasl o'zagi" dagi sigirlarnikidan 1297,8 kg (R), sut yog'i chiqimi 54,0 (R), tirik vazni 17,5 kg (R), sutdorlik koeffitsiyenti 199,4 kg (R), yuqori ko'rsatkichlarga ega. "Nasl o'zagi" guruhidagi sigirlarning sut miqdori shvis zotining andoza talablarini 1898,7 kg (59,3 %), "buqa yetishtiruvchi guruh"da 3196,5 (99,9 %), sut tarkibidagi

Seleksiya guruhidagi sigirlarning sut mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Seleksiya guruhi			
	"nasl o'zagi"		"buqa yetishtiruvchi guruh"	
	X±Sx	Cv,%	X±Sx	Cv,%
Bosh soni	56		9	
Sut miqdori, kg	5098,7±51,6	8,72	6396,5±107,6	9,58
Sut tarkibidagi yog', %	4,15±0,03	1,93	4,16±0,03	1,96
Sut yog'i chiqimi, kg	212,1±3,46	10,6	266,1±5,4	9,2
Tirik vazni, kg	552,5±3,42	4,9	570,0±6,0	3,86
Sutdorlik koeffitsiyenti, kg	922,8±10,6	7,3	1122,2±20,2	5,7

yog' tegishli 0,45 va 0,46 %, sut yog'i chiqimi 93,7 kg (79,1 %) va 147,7 kg (2,25 baorbar) o'zdi. Bu esa bunday sigirlardan kelgusida mahsuldorligi bo'yicha yuqori nasl qiymatiga ega avlod olish imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tadqiqotlar shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlari ko'p jihatdan naslchilik podalarida sun'iy qochirish tarmoqlarida foydalanilayotgan buqalarning genotipiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bunday podalarda jahon genofondigi hos yetakchi davlatlar seleksiyasiga mansub nasldor buqalardan keng foydalanish shvis zotli qoramollarning nasl va

mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirishda muhim o'ringa ega hisoblanadi. Bunday nasldor buqalardan keng foydalanish mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy salohiyatga ega avlod olish, zotni takomillashtirish, sermahsul sutbop podalar yaratish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Shvis zotli qoramollar podasida juftlashda Avstriya, Rossiya seleksiyasiga mansub shvis zotli nasldor buqalar yuqori irsiy salohiyatga va avlodlarining asosiy seleksiya belgilarini yaxshilash xususiyatlariga ega hamda podaning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish sur'atini oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ashirov M.E., Yo'lchiyev D.Sh. va boshqalar. Yangi liniyalar muhim seleksiya yutug'i. // "Zooveterinariya" jurnali. 2016, № 5, 24-27 b.
2. Егизарян А.В. Отбор быкопроизводящих коров по комплексу признаков с учетом воспроизводительных способностей. Ж. "Зоотехния". Москва, 2011. №5, с. 4-6.
3. Завертяев Б.П., Прохоренко П.Н. Совершенствование системы разведения и селекции молочного скота. Ж. "Зоотехния", Москва, 2000, №8, с. 8-12.
4. Сорокина И.И. Метод разведения по линиям, современное состояние и перспективы развития. Ж. "Зоотехния". Москва, 2009, №10, с. 6-8

UO'T: 636.22./28.082

SHVIS ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI KO'RSATKICHLARI

Bahriddinov Fayoziddin Bahriddinovich,
Farg'ona davlat universiteti (DSC) doktranti.

Annotasiya. Yuqori mahsuldor sigirlar podalarini yaratish va takomillashtirishda seleksiya usullarining ahamiyati nihoyatda katta. Bunda sigirlar podalarida maqsadga muvofiq tanlash usullari bilan birga juftlash usullarining ham o'rni nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, bunday podalarni shakllantirishda turli urchitish usullaridan olingan maqbul genotipdagi sigirlardan foydalanish sohani rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: shvis, zot, sigir, sut, yog', eksteryer, tana o'lchami, indeks, urchitish, yelin, nasldor buqa, liniya, oila.

Аннотация. Значение селекционных методов в создании и совершенствовании высокопродуктивных стад коров чрезвычайно велико. При этом роль методов спаривания наряду с целенаправленным отбором в стадах коров считается чрезвычайно важной. Также при формировании таких стад особое значение имеет использование коров оптимального генотипа, полученных различными методами спаривания, для развития отрасли и повышения ее продуктивности.

Ключевые слова: швис, порода, корова, молоко, жир, экстерьер, размер тела, индекс, спаривание, вымя, племенной бык, линия, семья.

Abstract. The importance of breeding methods in the creation and improvement of highly productive herds of cows is extremely high. At the same time, the role of mating methods, along with targeted selection in cow herds, is considered extremely important. Also, when forming such herds, it is of particular importance to use cows of the optimal genotype obtained by various mating methods for the development of the industry and increasing its productivity.

Keywords: schwyz, breed, cow, milk, fat, exterior, body size, index, mating, udder, breeding bull, line, family.